

Hayvonot bog'iga sayohat

1924-yili O'rta Osiyo universiteti (hozirgi O'zMU) biolog olimlari tashabbusi bilan Toshkent shahrining chekkasida mo'jazzina bog' tashkil etiladi. Bog'ga tashrif buyurgan ilk tomoshabinlar undagi mo'jizalarni ko'rib, hayratda qolishadi. Bu qanday mo'jiza ekan deb qiziqayapsizmi? Bu bog'ning "mezbonlari" O'rta Osiyo mintaqalarida yashovchi turli-tuman hayvonlar edi-da. 40-yillarning oxiriga kelib, ushbu maskan — 200 turdan ortiq hayvonlar jamlangan ko'rkam hayvonot bog'iga aylandi.

Mustaqillik sharofati bilan 1994-yili jahon standartlariga to'liq javob beradigan yangi va zamonaviy hayvonot bog'i qurilishi boshlanadi va 1997-yil 1-sentabr, Mustaqillik bayrami kuni foydalanishga topshiriladi. Hozirda 21,5 gektarlik bog' hududida 13 ta bo'lim tashkil etilgan, ulardan ikkitasi hayvonlarni ko'paytirishga ixtisoslashtirilgan. Qolgan 11 bo'lim tomoshabinlar hamda bog' mehmonlariga ko'rgazma sifatida xizmat qilmoqda.

Afrika sheri, Amur yo'lbarsi, bo'ri, qo'ng'ir ayiq, kotib qush, tuyaqush, tog' echkisi kabi hayvonlar bilan bir qatorda yenotsimon kuchuk, xoldor bug'u, grevi zebrasi kabi noyob jonivorlar parvarishlanmoqda. Yaqin bir yil ichida Toshkent Hayvonot bog'idan myuller amazoni, tukanlar, yashil qanotli ara to'tiqushi, astrilda, gulda amadini kabi noyob qushlar qo'nim topdi. Bundan tashqari, Rossiyaning "Gelendjik Safari" bog'idan Himolay ayiqlari, Xabarovsk o'lkasidan puma, Kanada bo'rilari, silovsin kabi hayvonlar olib kelindi. "Xamad Goder" Isroil sayyohlik kompleksi tomonidan Nil timsohlari sovg'a qilindi.

Ilgari hayvonot bog'ida bo'lmagan, nomlari sizga noma'lum bo'lgan jonivorlar bilan tanishtirib o'tmoqchimiz. Hayvonot bog'ining yangi "mehmon"laridan biri Langur deb ataladi. Primatlar oilasiga mansub bu maymun turi Janubi-Sharqiy Osiyo va Malakka yarim orollarining botqoqli joylarida guruh bo'lib yashar ekan. Guruhga erkak maymun boshchilik qiladi. Uning tanasining uzunligi 47-78 sm, vazni 6-7 kg ni tashkil etadi. Ajablanarlisi, langur bolalari to'q sariq rangda tug'ilib, oradan 6 oy o'tgach qora rangga o'zgarar va 20 yilgacha umr ko'rar ekan.

Addaks — Afrikaning bepoyon sahrolarida keng tarqalgan noyob jonivor. Tana uzunligi 150-170 sm, vazni 125 kg gacha tosh bosadi. Asosan o'simliklar bilan oziqlanadi. Tez chopa olmagan bois, ulaming soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Shu bois "Xalqaro Qizil kitob"ga kiritilgan. Addaks ham xuddi Langurga o'xshab 20 yilgacha yashaydi.

Siz avval faqatgina multfilm va kinolarda ko'rganingiz Qora bo'ri — haqiqatda ham mavjud ekan. Quvonarlisi, u hozirda hayvonot bog'imizda parvarishlanmoqda. Kanada bo'risi yoki qora bo'ri Kanada, AQSHning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Bu bo'ri ba'zan sariq, kulrang yoki oq tusli ham bo'lishi mumkin. Tanasining uzunligi 1,5 metr, og'irligi 80 kilogacha bo'ladi. In va kovaklarga uya qurib, 3 tadan 12 tagacha bolalashi mumkin. Ona bo'ri 3-4 hafta davomida bolalari oldida bo'lib, ularni emizadi. Kanada bo'risi o'zi va bolalari uchun go'sht topa olmasa, o'simliklar bilan ham qornini to'ydirib ketaverar ekan.

30 yilgacha umr ko'radigan Suxonos qushi noyob parrandalardan biri hisoblanadi. Osiyoning daryobo'yi qirg'oqlarida va kam suvli ko'llarida yashaydi. Suxonos yerga uyalab, 6 tagacha tuxum qo'yadi. Ko'karib turgan o'simlik o'tlari uning sevimli ozuqasi. G'alla ekinlarini ham paqqos tushirar ekan. Uning ishtahasini ko'rib beixtiyor "Qoyil, shovvoz" deb yuborasiz.

Yaqinda hayvonot bog'ida quvonchli voqea ro'y berdi. Qanday xushxabar ekan deb qiziqayapsizmi, nutriya, ya'ni suv kalamushi bolaladi. Bir to'p jajji kalamushchalar biror

ovoz eshitgan zahoti, darrov onalari pinjiga tiqilib ohshmoqda. Hozirda ulaming ahvoli qoniqarli, tez sur'atlarda o'sishmoqda.

Yaqin 4 yil ichida hayvonot bog'i sharoitida Afrika sherlari, Amur yo'lbarsi, Bir o'rkachli tuya, Kamerun echkisi, Patagon marasi, Kenguru va maymunlaming bir necha turidan zurriyod olishga erishildi. Hozirda jajji mittivoylar ota-onalari va bog'ning mehribon veterinarian qaramog'ida ulg'ayishmoqda.

Zooparkda har yili "Kabutarlar ko'rgazmasi" tadbiri o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, bolajonlarni Ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida bog' qoshida "Yosh tabiatshunoslar" bo'limi faoliyat olib borayapti. Jonivorlar uchun maxsus yangi volerlar qurildi, ko'plari ta'mirlanmoqda.

Yana bir xushxabar: "Keksalami e'zozlash yili" munosabati bilan joriy yilning 1-martidan boshlab, nafaqadagi bobo va buvijonlarimiz uchun yil davomida hayvonot bog'iga kirish bepul qilib belgilangan.

Xullas, o'n marta gapirgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal. Hayvonot bog'iga keling, ko'ring, zavq oling, tasavvurlaringizni boyiting. Toshkent hayvonot bog'i sevimli maskaningizga aylanishiga ishonamiz.

**Gulxan jurnalidan.
Davronbek Oripov,
Shahzod Shomansurov.**